| Транснациональные компании и проблема суверенитета национального государства .....                                                                                                               | 307 |
| <i>Ф. Равшанов, Л. Сохибова</i>                                                                                                                                                                  |     |
| Bo'lajak tarbiyachilarda o'quv-biluv faoliyati motivatsiyasini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati .....                                                                                      | 311 |
| <i>Muhammadiyeva Manzura Maratovna, Musulmonova Sabrina Akmal qizi</i>                                                                                                                           |     |
| Texnologik ta'limda xorijiy tajriba .....                                                                                                                                                        | 316 |
| <i>Lochinbek Abdirasulov</i>                                                                                                                                                                     |     |
| Talabalarda ilmiy-tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari .....                                                                                                  | 319 |
| <i>Saffarova Mohidil Axmadovna, Mustafayeva Feruza Anvar qizi</i>                                                                                                                                |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili darslaridagi asosiy resurslari: "ona tili" darsligi, mashq daftari, o'qituvchi kitobi ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida ..... | 324 |
| <i>Soatova Hilola Shuhrat qizi</i>                                                                                                                                                               |     |
| Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi – zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida .....                                                                                                   | 328 |
| <i>R. D. Mustayev, H. F. Abduvositov</i>                                                                                                                                                         |     |
| Русскоязычная литература Узбекистана современного периода: проблематика, поэтика и художественный анализ .....                                                                                   | 332 |
| <i>Чернова Татьяна Алексеевна</i>                                                                                                                                                                |     |
| O'smirlar orasida tengdoshlar bosimi va uning psixologik ta'siri .....                                                                                                                           | 335 |
| <i>Toshpo'latova O'g'iloy Baxtiyor qizi</i>                                                                                                                                                      |     |
| Bo'lajak tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalarda iste'mol madaniyatini shakllantirish jarayonida targeting yondashuvining pedagogik nazariy asoslari .....                              | 339 |
| <i>D. G. Umnov</i>                                                                                                                                                                               |     |
| Ona tili darslarini ikkinchi til tamoyillari asosida tashkil etish masalalari .....                                                                                                              | 344 |
| <i>Maxkamova Guluzroxon Abdumutalibovna</i>                                                                                                                                                      |     |
| Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ishlarni pedagogik jihatlardan tashkil etishning nazariy va amaliy aspektlari .....                                                                          | 347 |
| <i>Mahkamov Mahammadjon Dadajonovich</i>                                                                                                                                                         |     |
| Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar asosida dars jarayonini takomillashtirish metodikasi .....                                                                                             | 351 |
| <i>Muhammadjonova Durdonaxon Bahromjon qizi</i>                                                                                                                                                  |     |
| Tarix darslarini modellashtirishda pedagogik metodlar tasnifi va ularning samaradorligi .....                                                                                                    | 354 |
| <i>Ikrom Qodirov</i>                                                                                                                                                                             |     |

|                                                                                                                                                                  |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Hadassah gospital maktabi modelining o'ziga xos xususiyatlari, pedagogik samaradorligi va uni O'zbekiston gospital maktablariga tatbiq etishning ahamiyati ..... | 357 |
| <i>Abdullayev Aziz Habibullayevich, Ochilov Orazbek Qosim o'g'li, Alimova Dono Abbosxanovna</i>                                                                  |     |
| Davlat boshqaruvi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va prognozlash metodologiyasi.....                                                             | 361 |
| <i>Amirxo'jayev Shukurjon Qurbonovich, Sotvoldiyev Akbarjon Umidjon o'g'li</i>                                                                                   |     |
| Neyropedagogik yondashuv asosida o'quvchilarda pozitiv fikrlashni rivojlantirishning ilmiy-nazariy va amaliy asoslari .....                                      | 364 |
| <i>Babakulova Dilnoza Ramazonovna</i>                                                                                                                            |     |
| Boshlang'ich sinflarda nutqiy nuqsonlarning oldini olish va o'quvchilarning talaffuz madaniyatini shakllantirish metodikasi.....                                 | 367 |
| <i>Baxtiyorova Nastarin Baxriddinovna, Daminova Dilbar Melimurodovna</i>                                                                                         |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim olishga qiziqishini oshirishda gamifikatsiya elementlaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslari.....               | 370 |
| <i>G'aniyeva Gulxayyo Islom qizi, Raxmatova Shaxlo Mansurovna</i>                                                                                                |     |
| Ingliz tili darslarida kitobxonlik ko'nikmalarining o'ziga xosligi .....                                                                                         | 373 |
| <i>Jo'raboyeva Turg'unoy Ikromjon qizi</i>                                                                                                                       |     |
| Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida lingvokognitiv kompetentlikni rivojlantirishning didaktik tizimi.....                                                | 377 |
| <i>Kozimova Sadoqat</i>                                                                                                                                          |     |
| Umumta'lim maktablarida tabiiy fanlar (science)ni o'qitish orqali ekologik savodxonlikni shakllantirishning pedagogik asoslari .....                             | 380 |
| <i>Majitov Turg'unali Anvar o'g'li</i>                                                                                                                           |     |
| Oilaviy munosabatlarda manipulyativ muloqot indikatsiyasi: psixologik tahlil va eksperimental natijalar.....                                                     | 383 |
| <i>Nishanova Zulfizar Yashin qizi</i>                                                                                                                            |     |
| Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda raqamli ta'lim texnologiyalarining o'rni.....                                              | 386 |
| <i>Nurulloev Firuz No'monjonovich</i>                                                                                                                            |     |
| Talabalarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning tarixiy-pedagogik asoslari (ma'rifatparvar mutafakkirlar merosi misolida).....                       | 390 |
| <i>Sabirov Kaxramon Bektursun o'g'li</i>                                                                                                                         |     |
| Maktabgacha ta'lim yoshidagi 5-6 yoshli bolalarda muammoli vaziyatlarni mustaqil yechish qobiliyatini shakllantirish metodikasini takomillashtirish.....         | 393 |
| <i>Tillayeva Vasila O'ktam qizi</i>                                                                                                                              |     |
| Kritik fikrlash kompetensiyasining pedagogik va didaktik mazmuni .....                                                                                           | 398 |
| <i>Tursunaliyev Shaxzod Sherali o'g'li</i>                                                                                                                       |     |
| Kurashchi qizlarning texnik harakatlarini kinematik va kinetik modellashtirish .....                                                                             | 402 |
| <i>Xomudjonova Feruza Komiljon qizi</i>                                                                                                                          |     |
| Oliy ta'limda ishga doir muloqot asoslari fanini o'qitish orqali talabalarining og'zaki fikrlash va nutq faoliyatini rivojlantirish .....                        | 406 |
| <i>Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna</i>                                                                                                                           |     |
| Роль онлайн-платформ и образовательных сервисов в формировании ответственности студентов.....                                                                    | 409 |
| <i>Гуламов Жасур Баходирович</i>                                                                                                                                 |     |
| Изучение изменений полярного переключения негативных и позитивных эмоций средового воздействия в процессе развития/реабилитации механизмов эмпатии .....         | 413 |
| <i>Ягудин Дмитрий Рустамович</i>                                                                                                                                 |     |

# HARBIY VATANPARVARLIK TARBIYASI – ZAMONAVIY JAMIYAT TARAQQIYOTINING MUHIM OMILI SIFATIDA

UO'K 37.035.6:355

**R. D. Mustayev**

Harbiy ta'lim fakulteti, Farg'ona davlat universiteti, mayor

**H. F. Abduvositov**

Harbiy ta'lim fakulteti, Farg'ona davlat universiteti, kursant

**Annotatsiya:** Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining nazariy asoslari hamda uning zamonaviy jamiyat taraqqiyotidagi o'rni tahlil etiladi. Yosh avlodni Vatanga sadoqat, milliy g'urur va fuqarolik mas'uliyati ruhida tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, harbiy vatanparvarlik tarbiyasining yoshlarning ma'naviy-axloqiy kamoloti, fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish va davlatning mudofaa salohiyatini mustahkamlashdagi roli asoslab beriladi. Ta'lim tizimi, oila va jamiyat hamkorligi asosida yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning dolzarb jihatlarini ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** harbiy vatanparvarlik tarbiyasi, yoshlar tarbiyasi, vatanparvarlik, fuqarolik mas'uliyati, milliy qadriyatlar, jamiyat taraqqiyoti, harbiy tayyorgarlik.

**Abstract:** The theoretical foundations of military-patriotic education and its role in the development of modern society are analyzed. The socio-pedagogical significance of educating the younger generation in the spirit of devotion to the Motherland, national pride, and civic responsibility is highlighted. The role of military-patriotic education in the spiritual and moral development of youth, the formation of their civic position, and the strengthening of the state's defense capacity is substantiated. Particular attention is paid to актуальные aspects of fostering youth in the spirit of military patriotism through the cooperation of the education system, family, and society.

**Key words:** military-patriotic education, youth education, patriotism, civic responsibility, national values, social development, military training.

**Аннотация:** Анализируются теоретические основы военно-патриотического воспитания и его роль в развитии современного общества. Раскрывается социально-педагогическое значение воспитания молодого поколения в духе преданности Родине, национальной гордости и гражданской ответственности. Обосновывается роль военно-патриотического воспитания в духовно-нравственном развитии молодежи, формировании ее гражданской позиции и укреплении обороноспособности государства. Рассматриваются актуальные аспекты воспитания молодежи в духе военно-патриотизма на основе взаимодействия системы образования, семьи и общества.

**Ключевые слова:** военно-патриотическое воспитание, воспитание молодежи, патриотизм, гражданская ответственность, национальные ценности, развитие общества, военная подготовка.

## KIRISH

Bugungi globallashuv jarayoni, murakkab geosiyosiy vaziyat va axborot makonining keskin kengayishi sharoitida yosh avlodni Vatanga sadoqat, fuqarolik mas'uliyati va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyat barqarorligi, davlat mustaqilligi va milliy xavfsizlikni ta'minlash ko'p jihatdan fuqarolarning, ayniqsa yoshlarning vatanparvarlik tuyg'usi, ijtimoiy faolligi hamda fuqarolik pozitsiyasiga bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, harbiy vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarni nafaqat Vatan himoyasiga tayyorlash, balki ularda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarini – mas'uliyat, jasorat, fidoyilik va intizom kabi sifatlarini shakllantirishning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi.

Yangi O'zbekistonda jamiyat taraqqiyoti sharoitida harbiy vatanparvarlik tarbiyasi yosh avlodning milliy o'zligini anglash, tarixiy xotira va milliy qadriyatlarga sodiqlik ruhida kamol topishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, ta'lim tizimida yoshlarning harbiy-vatanparvarlik ruhini mustahkamlash, ularni Vatan taqdiri uchun mas'uliyatni chuqur his etadigan, ijtimoiy faol va ongli fuqarolar etib tarbiyalash bugungi kunning muhim ijtimoiy-pedagogik vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, harbiy vatanparvarlik tarbiyasining zamonaviy jamiyat taraqqiyotida muhim omil ekanligini ilmiy jihatdan o'rganish, uning nazariy asoslarini tahlil qilish hamda yoshlar tarbiyasidagi o'rni va ahamiyatini yoritish dolzarb ilmiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda.



Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti, davlat barqarorligi va milliy xavfsizlikni ta'minlash jarayonida yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muhim ijtimoiy-pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Globallashuv jarayonlari jadallashib borayotgan bugungi davrda har bir davlat o'zining milliy manfaatlarini himoya qilish, mustaqilligi va hududiy yaxlitligini saqlab qolish uchun fuqarolar, ayniqsa yoshlarning Vatanga sadoqatini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratmoqda. Shu nuqtai nazardan, harbiy vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarning fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini rivojlantirish, ularni Vatan himoyasiga tayyorlashning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi nafaqat harbiy xizmatga tayyorlash bilan cheklanib qolmay, balki shaxsning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish, Vatanga muhabbat, tarixiy meros va milliy qadriyatlarga hurmat ruhini shakllantirishni ham o'z ichiga oladi. Bu jarayon yosh avlodning ijtimoiy faolligini oshirish, ularda mas'uliyat, jasorat, fidoyilik kabi sifatlarni rivojlantirish orqali jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi <sup>[9]</sup>.

Shuningdek, harbiy vatanparvarlik tarbiyasi ta'lim tizimi, oila va jamiyat hamkorligida amalga oshiriladigan uzluksiz tarbiyaviy jarayon bo'lib, u yoshlarning ongida Vatan himoyasi muqaddas burch ekanligi haqidagi tushunchani mustahkamlaydi. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, harbiy ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davlat mudofaa salohiyatini mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi masalasi pedagogika, psixologiya va ijtimoiy fanlar doirasida keng o'rganilgan muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shu o'rinda mazkur tushunchaning izohlanishiga to'xtalib o'tiladi. O'zbek tilining izohli lug'atida "harbiy" so'zi burch, majburiyat sifatida talqin qilingan bo'lsa, O'zbekiston milliy ensiklopediyasining I jildida "vatanparvarlik" tushunchasi kishilarning ona yurtiga, o'z oshyoniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan atama sifatida izohlanadi <sup>[1, 3]</sup>. Demak, harbiy vatanparvarlik shaxsning o'z Vatanga bo'lgan sadoqati, uni himoya qilishga tayyorligi, milliy manfaatlar va davlat mustaqilligini qadrlashi hamda zarur bo'lganda Vatan himoyasida xizmat qilishga intilishi bilan ifodalanadigan ijtimoiy-ma'naviy fazilatdir.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi masalasi turli davrlarda turli olimlar tomonidan yosh avlodni Vatanga sadoqat, fuqarolik mas'uliyati hamda milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash nuqtai nazaridan tadqiq etilgan. Vatanparvarlik tarbiyasining nazariy asoslari ko'plab pedagog va mutafakkirlar asarlarida yoritilgan. Xususan, Sharq mutafakkirlari yoshlarni Vatanga muhabbat, sadoqat va fidoyilik ruhida tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratganlar. Ularning asarlarida shaxsning ma'naviy kamoloti, jamiyat oldidagi burchi hamda Vatan ravnaqi uchun xizmat qilish g'oyalari muhim o'rin egallaydi. Bu qarashlar hozirgi zamon vatanparvarlik tarbiyasi konsepsiyalarining shakllanishida muhim nazariy manba bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogika va psixologiya sohasida faoliyat olib borgan bir qator tadqiqotchilar vatanparvarlik tarbiyasining shaxs rivojlanishidagi o'rnini ilmiy jihatdan asoslab berganlar. Ularning tadqiqotlarida yoshlarning fuqarolik ongini shakllantirish, milliy o'zlikni anglash, ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirish hamda jamiyat manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo'yish kabi jihatlar muhim omillar sifatida ko'rsatib o'tilgan. Xususan, R.Yu. Kurbanov "Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy g'oyaning o'rne", E.T. Kalkanov "Vatanparvarlik shakllanishi va amal qilishining bog'liqlik qonuniyatlari", O.M. Safarbayev "Najmiddin Kubroning tasavvufiy ta'limotida insonparvarlik va vatanparvarlik g'oyalari", K.X. Usmonov "O'zbek xalqi ma'naviy-axloqiy merosida harbiy vatanparvarlik g'oyalarining talqini", A.D. Redjaboyev "Yoshlarni milliy istiqloq g'oyasi asosida harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash", Sh.A. Atadjanova "Oilada o'spirin yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari" kabi mavzularda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borganlar <sup>[2, 4, 5, 6, 7, 8]</sup>.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda harbiy vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarni nafaqat harbiy xizmatga tayyorlash, balki ularda yuqori darajadagi ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish vositasi sifatida talqin etiladi. Tadqiqotchilar bu jarayonda ta'lim tizimi, oila, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy institutlarning o'zaro hamkorligi muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydilar. Ayniqsa, ta'lim muassasalarida olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar yoshlarning Vatanga sadoqat, milliy g'urur va fuqarolik burchi haqidagi tasavvurlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi <sup>[10]</sup>. Shuningdek, so'nggi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlarda globallashuv sharoitida vatanparvarlik tarbiyasining yangi yondashuvlari, innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida yoshlar ongida harbiy vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish masalalari ham keng o'rganilmoqda. Tadqiqotchilar yoshlarning tarixiy xotirasini mustahkamlash, milliy qadriyatlarga hurmatni kuchaytirish hamda ularni Vatan himoyasiga tayyorlash jarayonida kompleks yondashuv zarurligini alohida ta'kidlaydilar.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, harbiy vatanparvarlik tarbiyasi jamiyat barqarorligi, davlat mustaqilligi va yosh avlodning ma'naviy kamolotini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega

bo'lgan ijtimoiy-pedagogik jarayon hisoblanadi. Shu bilan birga, mazkur yo'nalishda zamonaviy sharoitga mos yangi ilmiy yondashuvlar va amaliy mexanizmlarni ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar kompleks yondashuv asosida yig'ildi. Avvalo, harbiy vatanparvarlik tarbiyasiga oid ilmiy adabiyotlar, dissertatsiyalar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Empirik ma'lumotlar olish uchun oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida so'rovnoma va yarim tuzilgan intervyular o'tkazildi. Shuningdek, ta'lim jarayonida amalga oshirilayotgan harbiy-vatanparvarlik tadbirlari bevosita kuzatish metodi orqali o'rganildi. Olingan ma'lumotlar sifat va miqdoriy tahlil usullari asosida qayta ishlanib, ularning o'zaro bog'liqligi qiyosiy va tizimli yondashuv orqali aniqlashtirildi. Statistik ma'lumotlar umumlashtirish, guruhlash va foiz ko'rsatkichlari yordamida tahlil qilindi. Natijalarni talqin etishda esa mantiqiy tahlil, induksiya va deduksiya metodlaridan foydalanildi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Ta'lim tizimi yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Maktab, akademik litsey va oliy ta'lim muassasalarida yoshlarning tarixiy xotirasini mustahkamlash hamda milliy qadriyatlarni o'rgatish zarur. Ta'lim muassasalarida harbiy-vatanparvarlik tadbirlari, tarixiy qahramonlar hayoti bilan tanishtirish, harbiy qismlarga ekskursiyalar, sport va harbiy-amaliy mashg'ulotlar kabi faoliyat turlari samarali hisoblanadi. Bunday tadbirlar yoshlarning harbiy xizmatga qiziqishini oshiradi hamda ularni Vatan himoyasiga tayyorlaydi.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi jarayonida oila muhim rol o'ynaydi. Ota-onaning Vatanga hurmat va sadoqat haqidagi qarashlari farzand tarbiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mahalla va jamoat tashkilotlari ham yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Turli tadbirlar, uchrashuvlar va madaniy-ma'rifiy dasturlar yoshlar ongida Vatanga muhabbat tuyg'usini mustahkamlaydi.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi yoshlar dunyoqarashiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar turli g'oyalar bilan tanishadi. Shu sababli harbiy vatanparvarlik g'oyalarini targ'ib qilishda zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish muhim hisoblanadi. Multimedia materiallari, hujjatli filmlar va elektron ta'lim platformalari bu borada samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, harbiy vatanparvarlik tarbiyasining samaradorligi uning tizimli tashkil etilishiga bog'liq. Ta'lim muassasalari, oila va jamoatchilikning o'zaro hamkorligi bu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirishiga xizmat qiladi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik usullar va innovatsion texnologiyalarni qo'llash yoshlarning vatanparvarlik ruhini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, harbiy vatanparvarlik tarbiyasi zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Chunki har bir davlatning barqarorligi, mustaqilligi va xavfsizligi, avvalo, uning fuqarolarining Vatanga bo'lgan sadoqati, milliy g'ururi hamda fuqarolik mas'uliyati darajasi bilan belgilanadi. Shu jihatdan yosh avlodni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy, ma'naviy va siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb masalalardan biridir.

Maqolada tahlil qilingan nazariy qarashlar shuni ko'rsatadiki, harbiy vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarning ma'naviy-axloqiy kamoloti, fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy faolligini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. U yoshlarni Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga hurmat, tarixiy merosga sadoqat hamda davlat manfaatlarini himoya qilishga tayyorlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Shuningdek, harbiy vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarning mas'uliyat hissini oshiradi, ularni jamiyat hayotida faol ishtirok etishga undaydi hamda davlatning mudofaa salohiyatini mustahkamlashga hissa qo'shadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, harbiy vatanparvarlik tarbiyasini samarali tashkil etishda ta'lim tizimi, oila va jamiyatning o'zaro hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ta'lim muassasalarida yoshlarning tarixiy xotirasi, milliy o'zligi va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishga qaratilgan tarbiyaviy ishlarni tizimli ravishda olib borish zarur. Shu bilan birga, ommaviy axborot vositalari, madaniy-ma'rifiy tadbirlar va ijtimoiy loyihalar orqali ham yoshlar ongida vatanparvarlik g'oyalarini mustahkamlash muhimdir.

Shu bois, zamonaviy globallashuv sharoitida yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davlat va jamiyat oldida turgan muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Mazkur jarayon yoshlarning ma'naviy barkamolligini ta'minlash, ularda fuqarolik ongini shakllantirish hamda davlat mustaqilligi va tinchligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Demak, harbiy vatanparvarlik tarbiyasini rivojlantirish va uni ta'lim-tarbiya tizimida samarali amalga oshirish jamiyat taraqqiyotining muhim shartlaridan biridir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. <https://ensiklopediya.uz/>
2. <https://diss.natlib.uz/>
3. <https://izoh.uz/word/harbiy>
4. Atadjanova Sh.A. Oilada o'spirin-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari: pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: 2001. – 143 b.
5. Kalkanov E.T. Vatanparvarlik shakllanishi va amal qilishining bog'liqlik qonuniyatlari: falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: 2011. – 169 b.
6. Kurbanov R.Yu. Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy g'oyaning o'rni: falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: 2008. – 137 b.
7. Redjaboyev A.D. Yoshlarni milliy istiqlol g'oyasi asosida harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash: pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: 2004. – 201 b.
8. Usmonov K.X. O'zbek xalqi ma'naviy-axloqiy merosida harbiy vatanparvarlik g'oyalarining talqini: falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2017. – 158 b.
9. Сафоев Х.А. Воспитание студентов в духе военного патриотизма – актуальная педагогическая проблема // Проблемы педагогики. – 2020. – № 6 (51). – С. 34–35.
10. Юлдашева М.Б., Абдуваситов Х.Ф. Психолого-педагогические основы воспитания чувства патриотизма у студентов // Карбышевские чтения: сборник научных трудов международной научно-практической конференции / под общ. ред. Грошевой Л.И.: в 5 т., т. 3. – Тюмень: ТВВИКУ, 2025. – 378 с. – С. 371–376.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №3(2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.